

QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK

UO'K (UDC, УДК): 82-311.2

ERIX MARIYA REMARK VA O'TKIR HOSHIMOV ROMANLARIDA
BADIY PSIXOLOGIZM¹***Qosimov Abdug'opir Abdikarimovich***

professor, filologiya fanlari doktori,

Farg'ona davlat universiteti

Farg'ona, O'zbekiston

E-mail: a.a.qosimov@pf.fdu.uz***Xolmatov Oybek Umarjon o'g'li***

Adabiyotshunoslik kafedrasida o'qituvchi,

Farg'ona davlat universiteti,

Farg'ona, O'zbekiston

E-mail: oybekumarovich95@gmail.com

ANNOTATSIYA

KALIT SO'ZLAR

Maqolada nemis va o'zbek harbiy prozasida badiiy psixologizmning o'rni masalasi Erix Mariya Remark va O'tkir Hoshimov romanlari misolida tadqiq etilgan. Tahlil obyekti sifatida "Uch og'ayni" va "Tushda kechgan umrlar" romanlari olingan. Har ikki yozuvchi mazkur asarlarida urush ishtirokchilarining psixologik holatini qahramon va muhit konflikti, davr va qahramon muammosi fonida aks ettirgan. Bosh qahramonning urushga munosabati orqali mualliflar patsifizm g'oyasini ifodalanganligi ochib berilgan. Bugungi adabiyotshunoslikda badiiy asarlarni, xususan, romanlarni tahlil qilishda qahramon ruhiyati tasviri, personajlarning ichki nutqi kabi elementlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bois urush mavzusidagi romanlar g'oyasi, ularda ifodalangan muallif munosabatini belgilashda psixologizmning o'rnini aniqlash dolzarb ilmiy masalalardan biriga aylanib bormoqda. Mazkur maqolada shu muammo o'rganilib, mavzuga doir ilmiy manbalarga murojaat qilingan. Shuningdek, tahlillar jarayonida asarlarning badiiy matnidan misollar keltirilib, fikrlar ilmiy asosda dalillangan. Maqola yakunida tahlillar orqali olingan natijalar xulosalangan.

Psixologizm, proza, roman, "yo'qotilgan avlod", patsifizm, mavzu, talqin, qahramon, tahlil

Received: March 3, 2025**Accepted:** March 14, 2025**Available online:** May 2, 2025

¹ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Qosimov A., Xolmatov O. Erix Mariya Remark va O'tkir Hoshimov romanlarida badiiy psixologizm.// Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 2(6) — B. 7-17.

ARTISTIC PSYCHOLOGISM IN THE NOVELS OF ERICH MARIA REMARQUE AND UTKIR HASHIMOV

Kasimov Abdugapir Abdikarimovich

professor, Doctor of Philology,
Fergana State University,
Fergana, Uzbekistan

E-mail: a.a.qosimov@pf.fdu.uz

Kholmatov Oybek Umarjon ugli

teacher of the Chair of Literary Studies,
Fergana State University
Fergana, Uzbekistan

E-mail: oybekumarovich95@gmail.com

ABSTRACT

This article examines the role of artistic psychologism in German and Uzbek military prose, using the example of the novels of Erich Maria Remarque and Utkir Khoshimov. The novels “Three Comrades” and “Lives passed in the Dreams” are considered the objects of analysis. In these works, both writers reflected the psychological state of war participants against the background of the conflict between the hero and the environment, the problem of the era and the hero. Of particular note is the expression of the idea of pacifism put forward by the authors through the main character’s attitude to the war. In today’s literary criticism, when analyzing works of art, especially novels, special attention is paid to elements such as the depiction of the hero’s psyche and the inner speech of the characters. Hence, the investigation of psychologism’s influence on the concept of war novels and the author’s stance in them has become a pressing scholarly concern. This article examines this problem and refers to scientific sources on this subject. Additionally, throughout the analysis, examples from the literary text were provided and the concepts were supported with scientific evidence. At the end of the article, the results obtained through the analysis are summarized.

KEY WORDS

Psychologism, prose, novel, “lost generation”, pacifism, theme, interpretation, protagonist, analysis.

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ПСИХОЛОГИЗМ В РОМАНАХ ЭРИХА МАРИИ РЕМАРКА И УТКИРА ХАШИМОВА

Касимов Абдуганир Абдикаримович

профессор, доктор филологических наук
Ферганский государственный университет
Фергана, Узбекистан

E-mail: a.a.qosimov@pf.fdu.uz

Холматов Ойбек Умаржон угли

преподаватель кафедры литературоведения
Ферганский государственный университет
Фергана, Узбекистан

E-mail: oybekumarovich95@gmail.com

АННОТАЦИЯ

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

В статье рассматривается роль художественного психологизма в немецкой и узбекской военной прозе на примере романов Эриха Марии Ремарка и Уткира Хашимова. В качестве объекта анализа были взяты романы «Три товарища» и «Жизнь в сновидениях». В этих произведениях оба писателя отразили психологическое состояние участников войны на фоне конфликта героя и окружающей среды, показали свое видение проблемы эпохи и героя. Особое значение в них придается выражению идеи пацифизма, выдвигаемой авторами, через оценку отношения главного героя к войне. В современном литературоведении при анализе художественных произведений, особенно романов, большое внимание уделяется таким элементам, как изображение психологии героя, внутренняя речь персонажей. Кроме того, в современной науке о литературе одной из наиболее актуальных научных проблем становится определение места психологизма в выражении идеи романов на военную тематику и передаче с его помощью мироощущения автора. В настоящей статье с целью рассмотрения данной проблемы авторы обращаются к освещающим ее научным источникам. Также с целью научной обоснованности выводов в ходе анализа были приведены примеры из текста художественных произведений. В конце статьи сформулированы основные итоги проведенного исследования.

Психологизм,
проза, роман,
«потерянное
поколение», пацифизм,
тема, интерпретация,
герой, анализ.

KIRISH

Badiiy psixologizm asar qahramonining borliq, jamiyat va o‘z-o‘zi bilan bahsi, muloqoti vazifasini bajarib, muallifning g‘oyaviy-falsafiy maqsadini yuzaga chiqarishda muhim rol o‘ynaydi. Harbiy prozada askar obrazining urush ta‘sirida yuzaga kelgan badiiy kechinmalari tasviri muallif munosabatini aniq ifodalab, bu jarayonda badiiy psixologizm muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Chunki psixologizm inson ichki kechinmalarining asardagi aksini namoyon etgan holda muallif nuqtai nazarini, asar g‘oyasini belgilashga yordam beradi. Adabiyotshunoslikda psixologizm, qahramon ruhiyati tasviri kabi masalalar XX asrning 2-yarmidan boshlab asosiy ilmiy muammolardan biriga aylanib, keng miqyosda o‘rganilgan. Jumladan, jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida A.Iezuitov, L.Ginzburg, S.Rubinshteyn, H.Umurov, B.Karimov, M.Boboxonov va boshqa olim hamda tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida badiiy asar poetikasi, qahramon xarakterini belgilashda psixologik tahlilning o‘rniga alohida e‘tibor qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Ukrainalik adabiyotshunos Lidiya Ginzburg psixologizmni qahramon kechinmalari o‘rtasidagi ziddiyatlarning batafsil va chuqur tadqiqi deb ta‘riflab, dastlab avtobiografik va memuar asarlarda ifodalanganligini qayd etgan (Ginsburg L., 1979, 29). Urush mavzusidagi nasriy asarlarning aksariyati urush ishtirokchisi bo‘lgan yozuvchilar tomonidan yaratilganligini inobatga olsak, badiiy psixologizmning urush va qahramon munosabatini aks ettirishdagi roli muhim ekanligi anglashiladi. Askar obrazining mukammal holatda yaratilishida urushga hissiy munosabatning psixologik jarayonlar vositasida tasvirlanishi katta ahamiyatga ega. Xususan, jahon adabiyotida N.Rostov, A.Bolkonskiy (Lev Tolstoy, “Urush va tinchlik”), Bertran (Anri Barbyus, “O‘t”), Frederik Genri (Ernest Xeminguey, “Alvido, qurol!”), Paul Boymer (Erix Mariya Remark, “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q”), o‘zbek adabiyotida Ahmadjon Shukurov (Abdulla Qahhor, “Oltin yulduz”), Bektemir (Oybek, “Quyosh qoraymas”), Elmurod (Shuhrat, “Shinelli yillar”), Kimsan (O‘tkir Hoshimov, “Ikki eshik orasi”), Rustam (O‘tkir Hoshimov, “Tushda kechgan umrlar”) kabi askar obrazlarining xarakter xususiyatlari urushning

inson ruhiyatiga turli ko'rinishlardagi ta'sirini ifodalovchi psixologik tasvir vositasida aks ettirilgan. Askar psixologiyasi XX asr prozasida ancha keng va chuqur tasvirlanib, aksariyat holatlarda urushning qahramon ruhiyatida qoldirgan asoratini ifodalash vazifasini bajargan.

M.Boboxonov "shaxsning ruhiy hamda bir vaqtning o'zida davr va jamiyat qarama-qarshiliklarini, konfliktlarini aks ettiruvchi ichki ziddiyatlari aynan psixologizm orqali yaqqol ochiladi" (Бобохонов М., 2012, 10), deb ta'kidlaganida psixologizm va konflikt o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ham nazarda tutgan. Darhaqiqat, badiiy psixologizm qahramon ruhiyati va tashqi muhit munosabati konflikt yordamida talqin etiladi. "Adabiyotshunoslik lug'ati"da konfliktga "personajlarning asar syujetida badiiy ifodasini topadigan o'zaro to'qnashuv va kurashlari, qahramon bilan muhit orasida yoki uning ruhiyatida kechuvchi ziddiyatlar", deb ta'rif berilgan. Shu ta'rif asosida badiiy konflikt uch turga ajratilgan: 1) xarakterlararo; 2) qahramon va muhit; 3) ichki (psixologik) (Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М., 2013, 143-144). Askar va front voqeligi o'rtasidagi ziddiyat, asosan, badiiy konfliktning ikkinchi turi hisoblangan qahramon va muhit konflikti orqali namoyon bo'ladi. XX asr prozasida, xususan Erix Mariya Remark va O'tkir Hoshimov romanlarida askar hamda front konflikti urushga muallifning badiiy munosabatidan kelib chiqqan holda patsifizm g'oyasini ifodalashga xizmat qilgan. Bu xususiyat Erix Mariya Remarkning Paul Boymer, Robert Lokamp, Otto Kester, Valentin Gauzer, Ernst Grebber; O'tkir Hoshimovning Rustam, Xayriddin, Kimsan kabi qahramonlari talqinida aniq ko'rinadi.

MUHOKAMA

Har ikki yozuvchi urushning qahramonga yetkazgan psixologik jarohatini jang lavhalari, bevosita urush vaqtida bo'lib o'tgan voqealar fonidagina emas, urushdan keyingi davr voqeligi misolida ham aks ettirgan. Bu borada Remarkning "Uch og'ayni" romani alohida ahamiyat kasb etadi. "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" romanida asosiy makon front, okop, kazarmalar, jang maydoni edi. "Uch og'ayni" romanida esa muallif zamon va qahramon ziddiyatlari yuzaga chiquvchi badiiy makon sifatida shaharni tasvirlagan. Rus tadqiqotchisi D. Morev o'z

dissertatsiyasida keltirib o'tganidek: "romanda shahar manzarasi g'oyaviy jihatdan qahramonning o'zgarib turuvchi psixologik holatiga mos ravishda turli ko'rinishlarda aks ettirilgan" (Мошев Д., 2008, 11). Lokamp ijarada yashaydigan Zalevski xonimning pansioni, asosan, ichkilik iste'moli bilan bog'liq holda tasvirlangan kafe va restoranlar, kasalxona, shahar ko'chalarining tungi manzarasi davrga xos ijtimoiy-ma'naviy muammolarning jonli kartinasi sifatida namoyon bo'lgan. Bu makonlarda urushdan keyin turlicha turmush tarzini boshdan kechirayotgan, lekin hammasi birdek iztirob chekayotgan qahramonlarning hayotiga guvoh bo'lish mumkin. Remark shahar makoni vositasida urushning jamiyat hayotida davom etayotgan asoratlari aks ettirgan. Yozuvchi vayronkor hodisalar faqat urush vaqti va front makonida emas, urushdan qariyb o'n yil keyingi vaqtda shahar makonida ham ro'y berayotganligini tasvirlab, bu jarayonni o'n yil avvalgi urush qoldirgan asorat mahsuli sifatida ifodalaydi.

"Uch og'ayni" romanida ham do'stlik qahramonlarni begonalashgan jamiyatdan va bir vaqtning o'zida, yolg'izlikdan qutqaruvchi asosiy vosita vazifasini bajaradi (Маркин А., 2018, 36). Asarda o'ziga yupanch qidirgan qahramonlar: Lokamp, Kester va Lents, ular bilan yonma-yon tasvirlangan turli xarakterdagi personajlar: Patritsiya, Grau, Gauzer, Roza, Zalevski xonim va boshqa obrazlar misolida urush asoratlari ostida yashayotgan jamiyatning umumiy taqdiri tushkunlik, inqiroz holatida tasvirlangan. Romanda asosiy urg'u urush ishtirokchisi bo'lgan sobiq askarlarning taqdir va kechinmalariga qaratilgan. Romandagi quroldosh do'stlar "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" asari qahramonlarining ulg'aygan vakillariga to'g'ri keladi.

"Uch og'ayni" romanida Robert, uning ikki do'sti Gotfrid Lents va Otto Kester urushdan omon qaytgan sobiq askarlarning tipik vakillari sifatida psixologik jarohat, urush qoldirgan salbiy xotiralar bilan yashayotgan insonlar taqdirini umumlashtirgan. "Tushda kechgan umrlar" romanida esa bu vazifani Rustamning o'zi bajargan. Ikki roman qahramonlari o'rtasidagi psixologik kayfiyatning umumiylik kasb etishi Robert va Rustam obrazlarining qiyosi orqali yuzaga chiqadi. Bu qahramonlar o'rtasidagi umumiylik romanlarda o'z aksini topgan xotira tasviri

orqali aniq ko‘rinadi. Uyiga qaytgan qahramon o‘zini begona his qiladi, o‘z uyi unga avvalgidek qadrdon tuyulmaydi. Qahramonning kechinmalari makon va zamon kategoriyasi bo‘yicha keskin evrilishga uchragani aniq ko‘rinadi (Похаленков О., 2019, 29]. Robert urushdan keyin oradan o‘n yil vaqt o‘tgan bo‘lishiga qaramay, haligacha urush qoldirgan asoratlar, salbiy xotiralar girdobidan qutula olmagan. Romanning birinchi bobidayoq bu xususiyat quyidagi yo‘sinda ifodalanadi: *“O‘tmishni eslamaganim ma’qul. Ayniqsa, yolg‘iz qolgan paytlarimda. Kechqurunlari. Ammo-lekin aytishga osonku-ya, o‘tmish ba’zan shundoq ko‘z oldimga kelib, qadalib turib oladi. Shunday paytlarda aroq asqotadi”*. (Ремарк Э., 2015, 9]. Robert asarning bir necha o‘rinlarida o‘tmishni unutish, yoshlikni eslamaslik haqida mulohaza yuritisa-da, urush xotiralarini tez-tez uni bezovta qilaveradi. Jumladan, qo‘shnisi Xasse o‘z joniga qasd qilgani ma’lum bo‘lganida bu voqeadan iztirobga tushgan Zalevski xonimga taskin berish uchun urush xotiralariga beixtiyor murojaat qiladi:

“Frau Zalevski birdan ho‘ngrab yubordi.

– Qo‘ying, yig‘lamang, – dedim unga. – Endi hech narsani o‘zgartirib bo‘lmaydi.

– Qanday dahshat! – piqilladi u. – Bu yerdan ko‘chib ketishim kerak, chidolmayman!

– Chidaysiz, – dedim men. – Gazdan zaharlanib o‘lgan bir necha yuz inglizni ko‘rganman. Chidaganman...” (Ремарк Э., 2015, 301).

Robert har bir jiddiy voqelikdan keyin shu hodisaga yaqin bo‘lgan urush xotiralarini ko‘z o‘ngiga keltiradi. Qahramon ongiga mahkam o‘rnashib qolgan noxush xotiralar fonida urush ishtirokchilarining ruhiy iztiroblari, kechinmalari o‘z ifodasini topgan.

“Tushda kechgan umrlar” romanida ham endigina urushdan qaytgan Rustamning ong va ruhiyatida urush qoldirgan asoratlar bir necha epizodlarda tasvirlangan. Masalan, Rustamning urushdan yurtiga qaytganidagi kechinmalari quyidagicha ifodalangan: *“Toshkent o‘zgarmabdi. O‘sha-o‘sha shahar. O‘sha-o‘sha ko‘chalar. Yo‘l chetida yam-yashil daraxtlar yashnab yotibdi. Mashinalar bir-*

birini quvib, shamoldek yeladi. Go‘yo o‘n besh qadam oldinda borayotgan mashina minaga duch kelib, portlamaydigandek! Ko‘chada odam muncha ko‘p? Go‘yo olisda, qoyalar orasida biqinib turgan snayper xohlasi besh minutda yigirmatasini yer tishlatmaydigandek...” (Хошимов Ў., 2016, 171). Psixologik kechinmaning bu tarzda tasvirlanishi qahramonning urushdan qanday hissiyot bilan qaytganligi haqida tasavvur berish bilan birga urush va tinch hayot o‘rtasidagi antitezani ham ifodalagan. Qiyosiy uslubdagi badiiy tasvir vositasida muallif tinch hayotning badiiy manzarasini zimdan urushga qarama-qarshi qo‘ygan. “Yam-yashil daraxtlar” va “orasida snayper biqinib turgan qoyalar”, yoki “yelib-yugurayotgan mashinalar” va “yerga ko‘milgan minalar” o‘rtasidagi qarama-qarshi tasvir urush bilan tinchlikning o‘zaro zid ko‘rinishini badiiy aks ettirgan. Lekin bu Rustamning ruhiyatida shukronalik yoki taqdiridan minnatdorlik tuyg‘usini uyg‘otmaydi. Navbatdagi shunga o‘xshash epizodda qahramonning tinch hayotga moslasholmay qiynalayotgan kechinmalari quyidagidek tasvirlangan: “*Odamlarning bunchalik beparvo yurishiga hamon ko‘nikolmasdim. Har bir daraxt orqasida “duh” poylab turgandek edi*”. (Хошимов Ў., 2016, 189). Qahramon ongiga mustahkam o‘rnashib qolgan qo‘rquv refleksi afg‘on urushi ishtirokchilarining umumiy hissiyotlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Bu O‘.Hoshimov ijodida urushni rad etishning o‘ziga xos uslublaridan biri hisoblanadi.

NATIJALAR

Robert va Rustam obrazlarining psixologik evrilishlariga xos umumiy jihat qahramonlarda yosh tushunchasining o‘z ahamiyatini yo‘qotishidir. “Uch og‘ayni” romanining birinchi bobida Robertning tug‘ilgan kuni tasvirlangan bo‘lib, qahramon 30 yoshga to‘lgan. Ammo do‘sti Kesterning: “O‘ttiz yoshli kishiga o‘xshaysanmi, yo‘qmi?”, degan savoliga Robert “ham o‘n olti, ham ellik yoshli odamga o‘xshayman”, tarzida javob beradi.

– ...*Wie dreißig?*

– *Wie sechzehn und fünfzig gleichzeitig. Nicht besonders* (Remarque E., 1991, 12).

Yuqoridagi o‘rinda Robertning javobi ostida urushdan avvalgi davrda qolib ketgan o‘spirinlik hamda urushdan keyingi ulg‘ayishni ifodalovchi keksalikka ishora bor. Qahramon o‘zini bir vaqtning o‘zida ham o‘spirin, ham keksa insondek his qilishini ta’kidlash orqali boy berilgan yoshlik va kelajakka bo‘lgan umidsizlikni nazarda tutgan.

“Tushda kechgan umrlar” romanida ham Rustam o‘limi oldidan ruhiy larza holatida quyidagicha fikr yuritadi: *“Men necha yoshga chiqdim o‘zi? Yigirma ikkiga?! Yo‘g‘-e, axir, men yetmish ikkidaman-ku! Balki sakson ikkidadir? Nima farqi bor?!”* (Khoshimov U., 2016, 3). Romanning ilk sahifalarida keltirilgan ushbu jumla asar oxirida yana takror qo‘llangan. Bu yerda ham qahramon bir vaqtning o‘zida yosh va keksa insonning kechinmalarini his etayotganligi aks etgan. Remarkda bu jarayon do‘stlarning yumoristik suhbatida kechsa, O‘tkir Hoshimovda qahramonning kundalikka qayd etilgan butun umr sarhisobi, ma’nisiz umr haqidagi dardli iqrori holatida tasvirlangan. Har ikki adib ham bu orqali urushning qahramon ruhiyatiga bergan kuchli zarbasini yana bir bor o‘ziga xos uslubda aks ettirgan.

“Uch og‘ayni” romanida sobiq askarlarning izdan chiqqan ruhiyati Lokamp, Kester va Lentsdan tashqari Valentin Gauzer obrazi orqali ham o‘z ifodasini topgan. Bu qahramon urushda baxtli tasodif sababli o‘limdan qutulib qolgan inson bo‘lib, urushdan keyin katta meros olgan. Romanda unga quyidagicha ta’rif berilgan: *“Urushdan keyin Valentin kattagina merosga ega bo‘ldi. Shundan beri ichadi. Tirik qolganimni umrbod nishonlashim kerak, deydi. Oradan qancha yil o‘tib ketgani bilan ishi yo‘q... Urush jarohati ko‘ngliga qattiq o‘rnashib qolgan”*. (Ремарк Э., 2015, 37). Bu qahramon hayotini ijobiy tomonga o‘zgartirish uchun qolgan personajlardan ko‘ra ko‘proq imkoniyatga ega, biroq u ham asardagi boshqa obrazlar singari yuksak maqsadlar, katta intilishlar bilan yashamaydi. Aksincha, barcha sa’y-harakat va mehnatni foydasiz deb hisoblab, ichkilikdan bo‘shamaydi. Ichkilikka moyillik Remark asarlarining deyarli barcha asosiy qahramonlariga xos xususiyat bo‘lib, bu urush ishtirokchilarining ma’naviy va ruhiy inqirozini ifodalashga xizmat qilgan.

“Tushda kechgan umrlar” romanida ham askarlikdan qaytgan qahramonda alkogolizm illatining yuzaga kelishi kuzatiladi. Xususan, urush qoldirgan jarohatlar ustiga “o‘zbek ishi” voqealarining alami qo‘shilgach, ichkilik Rustamning odatlaridan biriga aylanadi. Bu esa asar voqealari davomida qahramonning halokatini tezlashtirishga xizmat qilgan. Shuningdek, Rustam urushda olgan jarohati oqibatida erkaklik quvvatidan mahrum bo‘lgan. Bu holat zamirida nafaqat jismoniy jarohat, balki istiqbolsiz kelajakka ishora ham mavjud.

XULOSA

Erix Mariya Remark va O‘tkir Hoshimovning urush mavzusidagi romanlarida askar obrazining o‘ziga xos xususiyatlari, qahramon xarakteri va muallif nuqtayi nazari psixologik tasvir vositasida keng ifodalangan. Xususan, “Uch og‘ayni” va “Tushda kechgan umrlar” romanlarida urush ishtirokchilarining intellektual va psixologik evolyutsiyasi aks ettirilib, urushning iqtisodiy va siyosiy manfaatdorlikka asoslanganligini idrok etgan yosh qahramonlarning kechinmalari vositasida mafkura hamda hayot haqiqati o‘rtasidagi teskari mohiyat ochib berilgan. Bu jarayonda Robert Lokamp va Rustam Shomatov obrazlari hikoyachi-personaj hamda jonli guvoh vazifasini bajargan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Гинзбург Л. О психологической прозе. – Л.: Художественная литература, 1976. – 448 б
2. Бобохонов М.Р. Ҳозирги ўзбек қиссачилигида психологизм. Филол.фан.номз...дисс.автореф. – Тошкент, 2012.
3. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 408 бет.
4. Морев Д.А. Берлин как текст в метаромане В.В.Набокова и Э.М.Ремарка. Автореферат дисс.канд.филол.наук. – М., 2008.
5. Маркин А.В. Случай Ремарка / Время Ремарка. К 120-летию со дня рождения писателя. Библиографический дайджест. – Волжский, 2018.

6. Похаленков О.Е. Мотивные комплексы и повествовательные стратегии романов «потерянного поколения» в контексте военной прозы XX века. Автореферат дисс.докт.филол.наук. – Смоленск, 2019.
7. Ремарк Э.М. Уч оғайни. – Тошкент: Шарк, 2015. – 416 бет.
8. Ҳошимов Ў. Тушда кечган умрлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – 272 бет.
9. Remarque E.M. Drei Kameraden. – Köln: Kiepenheuer & Witsch, 1991. – 585 бет.

REFERENCES:

1. Ginsburg, L. (2016). On Psychological Prose. Tashkent. P.448.
2. Bobokhonov, M.R. (2012). Psychologism in modern Uzbek short stories. Abstract of the dissertation of Candidate of Philological Sciences. Tashkent.
3. Kuronov, D., Mamajonov, Z., Sheralieva, M. (2020). Dictionary of Literary Studies. Tashkent. 408 p.
4. Morev, D.A. Berlin as a Text in the Metaroman of V.V. Nabakov and E.M. Remarka. Abstract of the dissertation of Candidate of Philological Sciences. Tashkent, 2020.
5. Markin, A.V. (2018). Cases of Remarka // TimeRemark. To the 120th anniversary of the writer's birth. Bibliographic Digest. Tashkent.
6. Pokhalenkov, O.E. (2020). Motive complexes and narrative strategies of the novels "The Lost Generation" in the context of military prose of the 20th century. Abstract of the dissertation of Doctor of Philological Sciences.
7. Remarque E.M. (2015). Three Peers. - Tashkent: ЎзМУ. 416 p.
8. Khoshimov U. (2016). Lives Passed in Dreams. - Tashkent: New Generation. 272 p.
9. Remarque E.M. (1991). Drei Kameraden. Köln: Kiepenheuer & Witsch. 585 p.